


Iste'mol bozori


Viloyatda savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2018 yil yanvar-may oylarida 2994.5 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101.8 foizga oshgan

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-may oylarida 2229.1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102.8 foizni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Namangan shahri (44.2 foiz), Norin tumani (7.3 foiz), Chust tumani (7.0 foiz), To'raqo'rg'on (6.6), Yangiqo'rg'on tumanlarni (5,6 foiz) ko'rsatkich bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1.1 mln.so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-may oylarida 0,9 mln. so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Norin tumani (1.3 mln. so'm), To'raqo'rg'on tumani (0,9 mln. so'm) Yangiqo'rg'on tumani (0,8 mln. so'm) kuzatildi.

	so'm	2017 yil Yanvar-may xolatiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1107377	100,0
Namangan sh	2194274	99,7
Mingbuloq	549213	98,9
Kosonsoy	833372	98,8
Namangan	558175	91,9
Norin	1388339	98,9
Pop	796171	104,1
To'raqo'rg'on	918615	90,4
Uychi	581675	99,5
Uchqo'rg'on	769257	100,3
Chortoq	705419	101,6
Chust	824472	114,0
Yangiqo'rg'on	808063	104,3